

## DINIY BAG'RIKENGLIK - TINCH-TOTUVLIK OMILI

*Ikromov Xabibullo Boqievich*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litsey o'qituvchisi*

*Jo'rayev Sodiqjon Muhammadinovich*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litsey psixologi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433563>

Har yili 16 noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, er yuzidagi ikki yuzga yaqin davlatda **8 milliard** kishini tashkil etadigan, **7000 til va lahjada** gaplashadigan **2000 ga yaqin** har xil millat va elatlar istiqomat qilmoqda, ular **o'n mingdan ortiq dinga** e'tiqod qiladilar. Eng ko'p tarafdorlarga ega bo'lgan;

Xristianlik diniga - 2,38 milliard, islom diniga - 1,91 milliard, xinduilik diniga - 1,16 milliard, buddaviylik diniga - 507 million, va yaxudiylik diniga - 14,6 million odamlar va qolganlari boshqa dinlarga etiqod qiladilar (5).

Shu jumladan, O'zbekistondagi axoli soni 2023 yil 1 yanvar holatiga **36.024.946** kishini tashkil etib, bulardan o'zbeklar - 29,2 million kishi, tojiklar –1,7 million kishi, qozoqlar – 821,2 ming kishi, qoraqalpoqlar – 752,7 ming kishi, ruslar – 720,3 ming kishi, qirg'izlar – 291,6 ming kishi, turkmanlar – 206,2 ming kishi, tatarlar – 187,3 ming kishi, koreyslar – 174,2 ming kishi, ukrainlar – 67,9 ming kishi, ozarbayjonlar – 41,2 ming kishi, beloruslar – 18,5 ming kishini va boshqa millat vakillari – 426,4 ming kishini tashkil etadi (7).

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqdalar va rasman ro'yxatdan o'tgan 16 diniy konfessiyaga mansub 2240 ta diniy tashkilotlar faoliyat olib bormoqda, bulardan, 2056 ta islomiy tashkilotlar, 157 ta xristian tashkilotlari, 8 ta yaxudiy, 6 ta baxoiy jamoa, 1 ta krishna jamiyati, 1 ta budda ibodatxonasi va 1 ta bibliya jamiyati ro'yxatga olinib faoliyat olib bormoqda.

Ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda. Shuningdek, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, o'z qiziqishi va layoqati bo'yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda etti tilda-o'zbek, qoraqalpoq, rus, qirg'iz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning o'nta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir. Respublikadagi pravoslav e'tiqodiga amal qiluvchilar uchun "Slovo jizni" gazetasi, "Vostok svo'she" jurnali, shuningdek, ibodat ma'ruzalari va boshqa ma'rifiy nashrlar chop etilyapti. Mamlakatimizda iste'qomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va maktablarda barcha millat vakillari uchun teng shart-sharoitlar yaratilgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va

radioeshittirishlar olib borilayotgani bu boradagi faoliyatning yaqqol dalilidir. Mustaqillik yillarida respublikamizda yuzlab masjidlar, cherkovlar, sinagoga va ibodat uylari qurildi va qayta ta'mirdan chiqarildi. Ular qatorida Toshkentdagi "Hazrati Imom" majmui, viloyat markazlaridagi jome' masjidlar, Toshkentdagi Rus pravoslav cherkovlari, shuningdek, buddaviylik ibodatxonasi, Samarqanddagi Arman Apostol cherkovi, Koraqalpog'iston Respublikasidagi "Sultan Vays bobo" va "Muxammad Norimjoniy" ziyoratgohlari, "Panteylemon" cherkovi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Yurtimizda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Berdaq, Ajiniyaz haykallari qatorida Ganjaviy, Rustaveli, Pushkin, Shevchenkolarning haykallari ham ko'cha va maydonlarimizga fayz baxsh etib turibdi. Bularning barchasi dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ko'rinishidir (6).

Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik, ular orasida o'zaro hurmat va do'stona aloqalarni o'rnatish orqaligina dunyoda barqarorlik, osoyishtalikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib qolaveradi.

**Bag'rikenglik**— bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda xur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

Bag'rikenglik yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Bag'rikenglik inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya, va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang. U ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni, o'z iymon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o'z tabiatiga ko'ra tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e'tirofqa loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

**Tolerantlik** - ("diniy bag'rikenglik") to'g'risidagi zamonaviy kontseptsiya tushunchasini shakllantirishda YuNESKOning xizmati katta bo'ldi. Jumladan, 1995 yilda ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi"da tolerantlik fuqarolik jamiyatining qadriyati va ijtimoiy normasi, deya ta'riflandi.

O'zbekiston Respublikasining 05.07.2021 yildagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-son qonunida konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va

totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan. (1).

Ma'lumki, so'nggi yillarda ayrim siyosiy kuchlar tomonidan millatlararo kelishmovchiliklarni keltirib chiqarish, ular orasida adovat uyg'otish orqali davlatlarni bo'lib tashlash, beqarorlikni keltirib chiqarish holatlari uchramoqda. Ushbu kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda, din omilidan foydalanilayotgani yanada ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda. Samoviy dinlarning manbalariga murojaat qilsak, ularning barchasida insoniyat bir ota va bir onadan tarqalganlik g'oyasini ko'rishimiz mumkin. Xususan, islom ta'limotiga ko'ra, butun bashariyat jinsi, irqi, rangi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barchasi barobardir. Bu borada Rasululloh (alayhis-salom) o'zlarining muborak bir hadislarida: «Insonlar taroq tishlari kabi tengdirlar. Arabning boshqa xalqlardan, oqning qoradan, erkakning ayoldan ustunligi yo'q. Faqat, taqvoda xolos», deb marhamat qilganlar.

Qur'oni karim «Rum» surasi 22-oyatiga ko'ra, odamlarning tili va rangidagi farqlar Xudoning mo'jizalaridandir. Dunyodagi turli-tumanlik Yaratganning irodasi va hikmati bilan bog'liq. Alloh dastlab odamzotni bir ota va bir onadan yaratdi, so'ngra ularni turli millat va elat hamda xalqlarga ajratishni iroda qildi. Bu borada Qur'oni karimda shunday deyiladi: «Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va birayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik» (Hujurot, 13). Bunday rang-baranglikdagi hikmat esa, umumiy farovonlik yo'lida xalqlar bir-birlari bilan musobaqa qilmoqlari, hamjihat va inoq yashamoqlari, hamda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlik qilib o'z yutuqlarini bir-birlari bilan baham ko'rishlarida namoyon bo'ladi.

Dinlarning turli-tumanligi «Agar Rabbingiz xohlasa edi, Er (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo'lur edilar. Bas, Siz odamlarni mo'min bo'lishlariga majbur qilasizmi?!» (Yunus, 99), deyilgan oyati karima asosida Yaratgan tomonidan o'rnatilgan ekan, uni bekor qilish yoki hammani bir din bayrog'i ostida zo'rlab birlashtirish mumkin emas. Qur'oni karimning boshqa bir oyatida: «(Ey, Muhammad!) Siz o'zingiz suygan kishilarni hidoyat qilaolmaysiz, lekin Alloh o'zixohlagan kishilarni hidoyat qilur. U hidoyat topuvchilarni yaxshi biluvchidir» (Qasas, 56) deb marhamat qilingan. Bundan, islom diniga kiritishda, hattoki, Payg'ambar (alayhis-salom) ham o'zlari istagan kishilarni kirita olmasliklari, balki, bu Alloh taoloning hukmida ekani kelib chiqadi.

Islomda e'tiqod erkinligi aniq qayd qilib qo'yilishi barobarida boshqa diyonatlarning barcha ibodatxonalari himoya va mudofa aqilinishi, dinlardagi ixtilofla rqotillik va adovatga sabab bo'lmasligi, yaxshilik, silai rahmdan to'smasligi kabi axloq masalalari ham batafsil bayon qilingan.

Bag'rikenglik masalasida payg'ambarimiz Muhammad (alayhissalom) islom ummatigagina emas, butun insoniyatga namuna bo'ldilar. Najrondan Madinaga tashrif buyurgan nasroniylar jamoasi o'z ibodatlarini bajarib olishlari uchun Rasululloh (alayhis-salom) masjidi nabaviyni ajratib berganlari tarixdan ma'lum va mashhur. Shuningdek, u zot ahli kitobdan bo'lgan qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lar, hadya berib, ulardan

ham turli hadyalar qabul qilardilar. Qo'shnihilik odoblari, ularga yaxshilik qilish borasida Rasululloh (alayhis-salom)dan ko'plab hadislar vorid bo'lgan. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinadi: «Kim Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo'lsa, qo'shnihilik qilinsin». Ulamolar mazkur hadislarini o'rganib chiqib, yaxshilik faqat musulmon qo'shnihilik emas, balki, boshqa din vakiliga ham birdek qilinadi, deyдилar. Bu borada quyidagi rivoyat naql qilinadi: Bir kuni sahobiylerden Abdulloh ibn Umar (r.a.) xizmatkoriga bir qo'y so'yishni buyuradilar. Xizmatkor ishga kirishgach unga: «Qo'yni so'yib bo'lgandan keyin, uni tarqatishni yahudiy qo'shnihilikdan boshlagin», deb takror-takror ta'kidlab, so'ng «Rasululloh (alayhis-salom)ning: «Jabroil menga qo'shnihilik haqqi borasida shu darajada ko'p ko'rsatma berdiki, men qo'shni ham meros olsa kerak deb o'ylab qoldim», deganlarini eshitganman dedilar.

Qur'oni karimda bayon qilingan Yusuf (a.s.) qissasida ham o'zga din va madaniyat vakillariga qanday muomala qilish kerakligi go'zal tarzda ifoda etiladi. Unga ko'ra, Yusuf (a.s.) o'zga millat, o'zga xalq, o'zga madaniyat muhitiga tushib qolib, u erda turli sinov, tazyiqlarga uchraydi, hatto zindonband ham qilinadi. Ammo kezi kelganda, ushbu jamiyatdan etgan jabr-sitamalar uchun Yusuf (a.s.) ulardan o'ch olmadilar, balki berilgan iste'dodlarini sarflab ushbu jamiyat ravnaqi, emin rivoji uchun o'zlarini safarbar qildilar. Bu jamiyatning o'zga dinga, e'tiqodga va boshqa madaniyatga mansubligi Yusuf (a.s.)ni ularga xizmat qilishdan aslo to'sgani yo'q. Payg'ambarning bunday ajoyib namunasi barcha odamzot uchun go'zal ibrat bo'lishi lozim. Yoki Qur'oni karimning «Qahf» surasida zikr etilgan Zulqarnaynning boshqa din va madaniyat vakillariga xolis yordam berib hech qanday evazsiz ularning hayotini himoya qilish, joni va molini saqlab qolish maqsadida to'siq qurib berish haqidagi qissa orqali Alloh taolo barcha bandalarini diniy, irqiy, madaniy mansubligidan qat'i nazar o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka chorlaydi.

Shu o'rinda, yurtimizdan etishib chiqqan allomalar o'z asarlarida dinlar va millatlararo bag'rikenglikni targ'ib qilib kelganlarini alohida qayd etish lozim. Buyuk olim Imom Moturidiyning Qur'on tafsiriga bag'ishlangan «Ta'vilot ahli sunna» asari «Haj» surasi 40-oyat tafsirida: «Cherkov va sinagoyalarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham, musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir», deb qat'iy ta'kidlaydi. Samarqandlik faqih, mufassir Abu Lays Samarqandiy esa, o'zlarining tafsir kitoblarida «Sizlar bilan urush qilmagan o'zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling», deb yozadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, islom ta'limotiga ko'ra bu dunyodagi barcha inson borki, ular irqi, nasl nasabi, kelib chiqishidan qat'i nazar tengdirlar. Boshqa millat va din vakillari bilan hamjihatlikni chuqurlashtirish uchun musulmonlar ular bilan muloqot qilmoqlari lozim. Qur'on bu dunyoni barcha xalq va din vakillari tinch-totuv yashaydigan zamin deb e'lon qildi. Demak, islom dini azaldan insoniyatga asl muruvvatni, hatto o'zga din vakillariga ehtirom hamda bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatib, ular bilan tinch-totuv yashashga, fitna va turli adovatlarga barham berishga chaqirgan.

Yurtimizda yashovchi turli din vakillariga diniy marosimlarini o'tkazishlari va mamlakat hayotida faol ishtiroklari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Bu borada mamlakatimiz o'ziga xos boy tajriba orttirganini ta'kidlash kerak. Buni butunjahon e'tirof etmoqda. O'zbekistonga tashrif buyurgan BMT Inson huquqlari bo'yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning quyidagi so'zlari buning yorqin dalilidir: «Bugungi

dinlararo va millatlararo tinchlik bo'lib turgan tahlikali kunlarda O'zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlik turli davlatlar uchun o'rnak bo'lishga loyiqdir".

Bunday ahillikning asosiy sababi mamlakatimizda turli din vakillari yagona maqsad yo'lida birlashib harakat qilishlaridir. Bu borada turli tadbirlar, anjumanlar o'tkazilib, mushtarak vazifalar ado etib boriladi. Bir-birlarimizni bayramlar bilan qutlaymiz. Bu, shubhasiz, mamlakatimizda qaror topgan tinchlik-osoyishtalik muhitida o'z ifodasini topmoqda.

Ta'kidlash lozimki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Hukumat qarori (495-son, 25.09.2023 y.) bilan "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Ko'krak nishoni bilan atoqli davlat va jamoat arboblari, diniy-ijtimoiy sohadagi rahbarlar va etuk ulamolar, davlat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlar xodimlari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik vakolatxonalarining vakillari, xorijiy arboblar va olimlar taqdirlanadi...

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, "O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz-jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 05.07.2021 yildagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-son Qonuni.
2. O'z.R.Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
3. "Dunyo dinlari tarixining fan sifatidagi nazariy metodologik asoslari". Islomov zoxidjon Mahmudovich, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi prorektori.
4. Jamoliddin Karimov O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
5. islom G'uz <https://G'G'islom.uz> maqola
6. Maqola "Diniy bag'rikenglik-millatlararo totuvlikning garovidir". Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vaziri o'rinbosari A.Shabatov.
7. O'zbekiston Axoli soni statistikasi-2023 yil.